



**TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING
O'RGANILISHI**

Mahmudova Fotima No'monjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistri

zulayhozuhaxon@gmail.com,

Annotatsiya: Ma'lum bir xalqning milliy udumlari, afsona va rivoyatlari, miflari, ma'naviyati haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan manba bu frazeologizmlar hisoblanadi. Xalqning milliy madaniyati va qadriyatlari to'g'risida ma'lumot beradigan manbayi esa frazeologik fondi sanaladi. Rus tilshunosi B.A.Larinning ta'kidlashicha, frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi. O'tgan asrning 50-yillariga kelib frazeologiya mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida alohida rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Bu borada qator tilshunos olimlar ish olib borganlar, jumladan, rus tilshunos olimlari A.I.Yefimov, S.I.Abakumov, A.Y.Rojanskiy, G.K.Damilovdir. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning o'rganilish tarixiga oid qarashlar berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik grafik namuna, frazeologik guruh, grafik frazeologik birlik, nutqiy frazeologik birlik, frazeologizm, miflar, frazeologik birlik, diologdagi nutqiy ibora.

Frazeologik fond qadim-qadimdan shakllanib, qo'llanilib keluvchi manba hisoblansa-da, uning o'rganilishi XVI asarga to'g'ri keladi. Frazeologiya – atamasini birinchi bo'lib 1558-yilda nemis filologi Mixail Neander qadimgi yunon notiqi Isokratning (mil.avv. 436-338) “Nutq va ifodalar to'plami”ni belgilash [3, 2021] uchun kiritgan. Qadimdan turli xil turg'un nutqiy iboralar ko'plab olimlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Shu nuqtayi nazardan bu turdagi birikmalarga turlicha nom berila boshlangan: frazeologik birlik yoki fraza (Vinogradov,1947), frazeologik grafik namuna, frazeologik guruh, grafik frazeologik birlik, nutqiy frazeologik birlik, diologdagi nutqiy ibora (Sh.Balli, 1961) deb ataganlar. Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvidan so'z birikmasi hosil bo'ladi va bu so'z birikmalari ma'no jihatidan erkin yoki turg'un bo'lishi mumkin. Masalan, jon tikmoq birikmasining matn tarkibidagi bizga ma'lum bo'lgan ma'nosi biror bir harakat-holatga mavjud bo'lgan barcha imkoniyat hamda kuchini safarbar qilish, bor imkoniyatlaridan foydalanishda hatto jonini fido qilish kabilardir. Birikma tarkibidagi so'zlarga e'tibor beradigan bo'lsak, so'zlar o'zining mustaqil ma'nosini saqlamagan, buning natijasida esa birikma tarkibidagi so'zlar erkin holatdan turg'un holatga ko'chgan va boshqa bo'laklarga bo'linmas turg'un birikmaga aylangan. Bunday birikmalar oddiy gap yoki so'zlar kabi nutq jarayonida hosil qilinmaydi, balki nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Tilshunoslikda bu birikmalarni o'rganib tahlil qiladigan bo'limi frazeologiya deb nomlanadi. Frazeologiya – yunoncha “phrasis” – ibora + logos” – fan, ta'limot degan ma'noni bildiradi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bu atama tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi:

1. Tilshunoslikning frazeologizm (frazema)larni o'rganadigan sohasi.
2. Biror tildagi barcha frazeologizmlar (frazemalar) majmuyi [1, 2023].

Frazeologiya atamasi bilan yondosh tarzda tilshunoslikda frazeologizm atamasi ham qo'llaniladi. Farzeologiya – bu atama yunoncha tildan olingan bo'lib, “phrasis”- ifoda, jumla + “logos” – so'z degan ma'noni bildiradi. Tuzilishga so'z birikmasiga yoki gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlikdir [1, 2023].

Frazeologiya bo'limi tilda mavjud bo'lgan barqaror hamda turg'un birikmalarning leksik va semantik, uslubiy va funksional, yasalishi va tuzilishi jihatidan xususiyatlari o'rganiladi. Tahlillar natijasida, frazeologiya bo'limining ilmiy jihatdan asoschisi Ch.Ballidir. Tilshunos olim o'zining qator asarlarida, jumladan, “Fransuz stilistikasi”da iboralar haqida to'xtalib o'tadi. Bundan tashqari yana bir tilshunos olim Ferdinan de Sossyur frazeologizmlarning ayrim xususiyatlarini o'rganib, ma'nosi hamda vazifasi jihatidan iboralarni tildagi tayyor birliklar, deb nomlaydi. Tilshunos olimlar tomonidan frazeologiyani alohida bo'lim sifatida boshqa bo'limlardan ajratish masalalari uzoq muhokamaga sabab bo'lgan. Frazeologiyani leksikologiya va stilistikaning tarkibiy qismi emas, balki alohida bo'lim sifatida o'rganib tahlil qilish fikri rus tilshunos olimi Y.D.Polivanov tomonidan fanga olib kirib tatbiq qilingan. Y.D.Polivanov ta'kidlashicha, frazeologiya bo'limi ham boshqa fonetika, morfologiya, sintaksis bo'limlari kabi alohida bo'lim sifatida o'rganilishi kerakdir. Rus tilshunosligida, aslida, frazeologiya bo'limining alohida tarmoq sifatida talqin etilishi XX asrning 40-yillariga borib taqaladi. A.A.Potebniy, I.I.Sreznevskiy, Y.D.Polivanov, S.Abakumov kabi olimlar bu borada samarali ish olib boradilar. Y.D.Polivanov va S.Abakumov frazeologiya bo'limini alohida bo'lim sifatida o'rganishni talqin qilgan bo'lsalar, A.A.Potebniy hamda I.I.Sreznevskiy frazeologiya bo'limini mustaqil tarmoq sifatida davriy hamda asriy rivojlanish bosqichini o'rganganlar. Rus tilshunos olimi V.V.Vinogradov [2, 1977] o'zining olib borgan bir qator ilmiy izlanishlarida rus tiliga oid bo'lgan frazeologik birliklarni jamlagan va mazkur frazeologik birliklarni alohida leksik qatlam sifatida talqin qilgan.

V.N.Teliya, N.M.Shanskiy, V.P.Jukov, L.P.Simit kabi bir guruh tilshunos olimlar frazeologik birliklarni idioma, frazeologik birliklar, turg'un iboralar, maqol, matalning bir-biridan turli jihatlariga qarab frazeologiyani turli ma'noda talqin qilganlar, lekin tilshunos olim V.V.Vinogradov frazeologik birliklarni semantik jihatdan tasnif qilgan va frazeologik birliklarni tuzilish jihatidan so'zlarga yaqin ekanligini hisobga olgan holda, olim o'zining ilmiy nazariyasini so'zning tahlil qismiga olib kirgan hamda frazeologiya tarkibiga maqol va matallarni kiritmaydi, chunki shakl jihatidan gapga to'g'ri kelishini hamda ular frazeologiya bo'limi o'rganishi zarur bo'lgan predmet emas ekanligini ta'kidlab o'tadi. Tilshunoslikda “frazeologiya” atamasi o'rganila boshlangach, unga yondosh tarzda “frazeologizm” tushunchasi ham paydo bo'ladi. “Frazeologiya” va “frazeologizm” tushunchalarining turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha tushunilishi va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

talqin qilinishi mazkur masalaning murakkabligi, ko'p qirraliligi fanda yanada chuqur izlanishlarni taqozo qiladi. Frazzeologiya nazariyasining asoslari rus olimlari A.A.Potebnya va F.F.Fortunatovlarning ishlarida kuzatish mumkin. Birinchi bo'lib so'zlarning turg'un birikmalari xususiyatlarini va ularning tasnifini tavsiflagan hamda "bog'langan so'z birikmalarini o'rganuvchi stilistika bo'limi" [5, 1984] sifatida tushuniladigan frazeologiya terminini kiritgan fransuz tilshunosi Sh.Balli g'oyalari ham frazeologiya rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tilshunos olimlar tomonidan frazeologiyani alohida bo'lim sifatida boshqa bo'limlardan ajratish masalalari uzoq muhokamaga sabab bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2023.
2. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. – Москва, 1977.
3. Madaliyeva O. Frazzeologiya bo'limining mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanishi.//Innovative developments and research in education. Kanada.
4. Sultonova O. Frazzeologizmlarga nazariy va amaliy yondashuv.// Modern philological paradigms: interaction of traditions and innovations III. – Toshkent, 2022.
5. Балли Ш. Французская стилистика. М.: Наука, 1984.

